

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Ko'lyozma huquqida
UDK: 336I(575.1)*

TURDIBAEV JAHONGIR TO'LQINOVICH

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari

5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n. Nasriddinov F.N.

TOSHKENT – 2019

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida valyuta operatsiyalari va uni tartibga solishning nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan, O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va valyuta siyosati tahlil qilingan, O'zbekiston Respublikasida valyuta munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Theoretical methodological bases of the monetary relations and its regulation are investigated, monetary policy and legal economic bases of the monetary relations in the Republic of Uzbekistan are analyzed, the priority directions of improvement of regulation of the monetary relations in the Republic of Uzbekistan are worked out in this dissertation.


Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. _____ - sonli bayonnoma «____» _____ 2019 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. F.Nasriddinov


imzo

_____ sana

Magistr: J.Turdiboyev



imzo

_____ sana

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Bank ishi" kafedrasi mudiri

dots. U.Duskobilov


"29" may 2019 yil

Himoya 2019 yil "29" may soat 14⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. VALYUTA OPERATSIYALARINING MOHIYATI VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI ROLINING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. Valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyoti rivojidadagi o'рни.....	7
1.2. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	16
Birinchi bob boyicha xulosa.....	23
II BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA ULARNING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	24
2.1. O'zbekistonda tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.....	24
2.2. O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining holati va uni tahlili	32
2.3. O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorining joriy holati tahlili	42
Ikkinchi bob boyicha xulosa	50
III BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI RIVOJLANTIRISH OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	52
3.1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi muammolar.....	52
3.2. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari	56
Uchinchi bob boyicha xulosa	64
XULOSA VA TAKLIFLAR	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. So‘nggi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma‘muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun imtiyoz va preferensiyalarning asossiz ravishda kam samarali bo‘lgan tizimini shakllantirdi, biznes yuritishda teng bo‘lmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va xizmatlar eksporti samaradorligini pasaytiruvchi omilga aylandi¹.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil Oliy Majlis Murojaatnomasiga bag‘ishlangan majlisda quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar: “Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish lozim.”²

Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida valyutani tartibga solishning samarali tizimini vujudga keltirish, valyuta sohasida yuzaga keladigan turli holatlarni iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan salbiy ta’sirini oldini olish tadbirlarini ishlab chiqarish katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga jahonda ro‘y berayotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida pul-kredit va valyuta munosabatlarini tartibga solish, Respublika valyuta birjasi va birjadan tashqari valyuta bozorlarini rivojlantirish, tijorat banklari valyuta operatsiyalarini takomillashtirish masalalarini chuqur tahlil qilish zarurdir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sonli Farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28 dekabr 2018 yil.